Akademik Jumanazar Bazarbayev olamdan o’tdi

O’zbekiston ilm-fani og’ir judolikka uchradi.
Qoraqalpog’iston fanining yirik namoyandasi, faylasuf olim, O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi Jumanazar Bazarbayev 2020 yilning 25 sentyabrida 87 yoshida vafot etdi.
Marhumning oila a’zolari va yaqinlariga O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nomidan chuqur hamdardligimizni bildiramiz.
Atoqli olim, mehribon ustoz, kamtarin inson Jumanazar Bazarbaevning xotirasi qalblarimizda hamisha saqlanib qoladi.